



## Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 5 669 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 569 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 663,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevraliga nisbatan 27,5 % ga oshdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 113,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 550,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 637,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 151,0 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 2 462 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 434 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 566,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 18,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 482,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 94,6 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Shovot (11,4 m.), Qo'shko'pir (11,2 m.), Xiva (8,0 m.), Bog'ot (4,9 m.) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)




### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 541 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 538 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 929,5 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> M.Egamov Tel: (9090)	<b>Ijrochi:</b> R.Buxarbayev Tel: (9091) e-pochta: <a href="mailto:savdo@xorazmstat.uz">savdo@xorazmstat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--